

QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLARDA SONLAR VA MUCHAL TIZIMINING IFODALANISHI

Turdaliyeva Shodiya Zokirjon qizi

K.UZ-23-01-guruh talabasi

Elektron pochta: sturdaliyeva22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438641>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda son kategoriyasi va muchal tizimining ifodalanish xususiyatlari lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Orxon-Yenisey bitiklari va boshqa qadimgi turkiy manbalar asosida sonlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning grammatik shakllanishi va funksional qo'llanilishi o'rganiladi. Shuningdek, muchal tizimining kelib chiqishi, uning vaqtni hisoblashdagi roli va qadimgi turkiy tafakkur bilan bog'liqligi yoritiladi. Maqolada sonlarning nafaqat miqdor ifodalovchi birlik sifatida, balki ramziy va semantik yuklamaga ega til vositasi sifatidagi ahamiyati ham ko'rsatib beriladi. Muchal tizimi esa turkiy xalqlarning siklik vaqt tasavvuri va kosmologik qarashlari bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy til, son kategoriyasi, muchal tizimi, Orxon-Yenisey bitiklari, leksik-semantik xususiyatlar, grammatik shakllanish, vaqt tushunchasi, sikliklik, turkiy tafakkur, lingvokulturologiya

Kirish

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi bilan bir qatorda ularning til tizimi, tafakkuri va dunyoqarashini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorliklarda tilning asosiy grammatik kategoriyalari bilan birga son tushunchasining ifodalanishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Son kategoriyasi qadimgi turkiy tilning leksik-semantik tizimida muhim rol o'ynab kelmoqda; u nafaqat miqdorni ifodalashda ishlatiladi, balki vaqt, tartib, sikliklik va kosmologik tasavvurlar bilan bog'liq holda ham qo'llaniladi. Ayniqsa, muchal tizimi orqali vaqtni hisoblash qadimgi turkiy tafakkurning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Til inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasi bo'lib, unda jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va dunyoqarashi mujassam holda namoyon bo'ladi. Har bir til tizimida muayyan grammatik kategoriyalar mavjud bo'lib, ular orqali inson borliqni idrok etadi va uni til vositasida ifodalaydi. Shunday kategoriyalardan biri son kategoriyasi bo'lib, u nafaqat miqdorni bildiradi, balki vaqt, tartib, sikliklik va ramziy ma'nolarni ifodalashda ham muhim rol o'ynaydi. Qadimgi turkiy til tizimida son kategoriyasi ayniqsa keng funksional imkoniyatlarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — Orxon-Yenisey bitiklari, qadimgi uyg'ur matnlari va boshqa manbalar turkiy xalqlarning til tizimi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy hayoti, siyosiy tuzumi va dunyoqarashini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarda sonlar keng qo'llanilib, ular orqali nafaqat aniq miqdorlar, balki tarixiy voqealar ketma-ketligi, vaqt oralig'i va jamiyat hayotidagi muhim hodisalar ifodalangan. Bu holat son kategoriyasining qadimgi turkiy til tizimida markaziy o'rinlardan birini egallaganligini ko'rsatadi.

Son kategoriyasi qadimgi turkiy tilning leksik va grammatik tizimida barqaror birlik sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy birliklari bugungi kunda ham deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan. Bu esa turkiy tillarning tarixiy uzluksizligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sonlarning qo'llanishi faqat grammatik chegaralar bilan cheklanib qolmagan, balki ularning semantik va pragmatik

imkoniyatlari ham keng bo'lgan. Masalan, ayrim sonlar muayyan ramziy ma'nolarni ifodalagan, ayrimlari esa ijtimoiy yoki diniy tushunchalar bilan bog'liq holda qo'llanilgan.

Qadimgi turkiy tafakkurda vaqt tushunchasi alohida o'rin tutadi. Vaqtni idrok etish va uni tizimlashtirish ehtiyoji muchal tizimining shakllanishiga olib kelgan. Muchal tizimi 12 yillik sikl asosida qurilgan bo'lib, har bir yil muayyan hayvon nomi bilan atalgan. Bu tizim qadimgi turkiy xalqlarning tabiat bilan uyg'un yashaganligini, ularning kosmologik va mifologik qarashlari til va madaniyatda aks etganligini ko'rsatadi. Muchal tizimi orqali vaqt faqat chiziqli jarayon sifatida emas, balki takrorlanib turuvchi sikl sifatida idrok etilgan.

Muchal tizimining o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat kalendar vazifasini bajargan, balki ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalarida ham qo'llanilgan. Masalan, insonning yoshi, muhim voqealar va tarixiy hodisalar ko'pincha muchal yillari orqali ifodalangan. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Muchal tizimi turkiy xalqlarning kollektiv xotirasida muhim o'rin egallagan bo'lib, u orqali vaqtni hisoblash va voqealarni tizimlashtirish an'anasi shakllangan.

Adabiyotlar sharhi

Qadimgi turkiy til va uning grammatik tizimi masalasi — jumladan son kategoriyasi — turkiy tilshunoslikda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Bu sohada bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qimmatli ilmiy ishlar olib borilgan. V.V. Radlov, A.N. Kononov va S.E. Malov kabi olimlar qadimgi turkiy tilning fonetik, morfologik va leksik jihatlarini chuqur tahlil qilishgan. Ularning tadqiqotlarida sonlarning shakllanishi va qo'llanilishi haqida muhim kuzatishlar taqdim etilgan.

A.N. Kononovning turkiy tillar grammatikasiga oid asarlari son kategoriyasining tarixiy rivojini tushunishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan materiallarni taqdim etadi. U sonlarning morfologik tuzilishi hamda ularning har xil turkiy tillardagi variantlarini qiyosiy tahlil qilgan. S.E. Malov esa qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni o'rganishda ularning leksik tarkibini chuqur tekshirib chiqqan hamda sonlarning qo'llanish doirasi va semantik imkoniyatlarini ko'rsatishga e'tibor qaratgan.

O'zbek tilshunosligida ham bu masalaga alohida e'tibor berilgan bo'lib N.Mahmudov, A.Nurmonov va Sh.Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan son kategoriyasining nazariy asoslari keng bahs etilgan. Ayniqsa Sh.Rahmatullayevning leksikologiya sohasidagi ishlari bu masalada muhim manba vazifasini o'taydi.

Muchal tizimi mavzusi esa ko'proq tarixiy-etnografik va lingvokulturologiya tadqiqotlariga asoslangan holda o'rganilgan bo'lib bu borada qadimgi kalendar tizimi bilan bog'liq ilmiy ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Muchal tizimi Xitoy kalendarini taklif etsagina mavjud bo'lishiga qaramay mustaqil madaniyat hodisasi sifatida shakllangan.

Zamonaviy tadqiqotlarda son kategoriyasi va muchal tizimini integrativ yondashuv doirasida — ya'ni tilning madaniyat bilan uyg'unligi nuqtai nazaridan — o'rganish amalga oshirilmoqda; bu esa mazkur masalaning yanada chuqurroq tahlil qilinishiga imkon yaratmoqda.

Asosiy Qism

Qadimgi turkiy til yodgorliklari, xususan, Orxon-Yenisey bitiklari, “Kultegin”, “Bilga qoqon” va “Tonyukuk” kabi yozma manbalar sonlarning qo'llanishini o'rganish uchun asosiy material sifatida xizmat qiladi. Ushbu manbalarda sonlar faqat aniq miqdorlarni ifodalash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy, siyosiy va harbiy hayot bilan bog'liq kontekstlarda ham qo'llanilgan. Misol uchun, qo'shinlar soni, jangchilar miqdori va yil yoki davrlarni ifodalashda sonlar faol

ishtirok etgan. Bu esa son kategoriyasining grammatik jihatdan emas, balki pragmatik nuqtai nazardan ham ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy tilda sonlar ikki asosiy guruhga bo'lingan: aniq sonlar va tartib sonlari. Aniq sonlar miqdorlarni ifodalashda foydalanilsa, tartib sonlari ketma-ketlikni belgilashda ishlatilgan. Masalan, "bir", "ikki", "uch", "tört", "besh", "alti", "yeti", "sekiz", "tokuz" va "on" kabi birliklar qadimgi turkiy tilning asosiy raqamlarini tashkil etadi. Ushbu sonlarning fonetik shakllari zamonaviy turkiy tillarda deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolishi ularning barqarorligini ko'rsatadi.

Sonlarning qo'llanishida morfologik vositalar ham muhim rol o'ynagan. Tartib sonlarini hosil qilish uchun "-nch" yoki "-inchi" affikslari ishlatilgan. Bu hodisa zamonaviy o'zbek tilida ham davom etmoqda va "birinchi", "ikkinchi" kabi shakllarda ifodalanmoqda. Qadimgi matnlarda esa sonlarning sintaktik jihatdan mustaqil holda ishlatilishi ko'zga tashlanadi; ular gapda aniqlovchi yoki kesim tarkibida keladi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda raqamlar nafaqat hisoblash vositasi sifatida xizmat qilgan, balki ma'lum ramziy ma'nolarni ham aks ettirgan. Masalan, "to'rt" raqami ko'pincha dunyoning to'rt tomoni bilan bog'liq holda ishlatilsa, "yetti" ramziylikni bildiruvchi muqaddaslik va mukammallikka ishora qiladi. Bunday holatlar sonlarning semantik maydoni keng ekanligini ko'rsatmoqda.

Muchal tizimi qadimgi turkiy xalqlarning vaqtni hisoblash usulida alohida ahamiyatga ega bo'lgan bir tuzilma hisoblanadi. Muchal tizimi 12 yillik siklga asoslangan bo'lib, har bir yil ma'lum bir hayvon nomiga ega bo'ladi. Bu tizim turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning kosmologiya va mifologiya qarashlariga chuqur bog'langan. Muchal tizimidagi yil nomlari odatda quyidagi ketma-ketlikda joylashadi: sichqon, sigir, yo'lbarz, quyon, ajdarho, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it va to'ng'iz. Bu tizim vaqtni nafaqat hisoblash balki voqealarni eslab qolish va tarixiy hodisalarni tasniflash imkonini beradi.

Kadimgi turkiy yozma manbalarda muchal tizimi bevosita yoki bilvosita aks ettirilishi kuzatiladi. Ba'zi hollarda yil nomlari aniq ravishda keltirilsa; boshqa paytlarda voqealar ketma-ketligi orqali vaqtning o'tishi anglatiladi. Muchal tizimining qo'llanilishi qadimgi turkiy jamiyatda vaqt tushunchasining siklik xarakterini namoyish etadi; bu esa ularning tabiat bilan uyg'un yashaganligini ta'minlaydi.

Muchal tizimi til birliklarida ham namoyon bo'lgan; misol uchun ayrim iboralarda muchal yillari bilan bog'liq tushunchalar uchraydi. Bu esa muchal tizimining faqat kalendar elementi emas balki madaniyat fenomenini sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Qadimgi turkiy tafakkurda vaqt chiziqli emas balki aylana shaklida tasavvur qilingan; muchal tizimi aynan shunday siklik dunyoqarashning til va madaniyatdagi aksidir.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda raqamlar va muchal tizimining ifodalanganligi lingvistik tadqiqot nuqtai nazaridan ham madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Son kategoriyasi orqali tilning grammatik tuzilmasini o'rganish mumkin bo'lganidek; muchal tizimi orqali qadimgi turkiy xalqlarning dunyoqarashi va vaqt tushunchasi tahlil qilinadi. Ushbu ikkita hodisa bir-biri bilan bog'liq holda til va madaniyat integratsiyasini tashkil etadi.

Hozirgi kunda ham muchal tizimi ba'zi turkiy xalqlarda saqlanib qolmoqda; u xalq og'zaki ijodi jarayonida urf-odatlarda mavjuddir.

Bu esa qadimgi turkiy madaniyatning uzviy davomiyligini ko'rsatmoqda. Shuningdek asosiy raqam shakllarining zamonaviy turkiy tillarda saqlanishi til tarixidagi uzluksizlikni tasdiqlaydi.

Xulosa

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, son kategoriyasi turkiy til tizimining eng barqaror va funksional jihatdan faol birliklaridan biri hisoblanadi. Sonlar qadimgi turkiy tilning nafaqat grammatik tizimida, balki uning semantik va pragmatik qatlamida ham muhim o'rin egallagan. Ular orqali miqdor, tartib, vaqt va boshqa muhim tushunchalar ifodalangan bo'lib, bu esa son kategoriyasining ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, qadimgi turkiy son birliklari fonetik va morfologik jihatdan yuqori darajada barqaror bo'lib, ularning asosiy shakllari zamonaviy turkiy tillarda ham saqlanib qolgan. Bu holat turkiy tillarning tarixiy uzluksizligini va umumiy ildizga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Sonlarning qo'llanishi qadimgi matnlarda ko'pincha real voqealar, tarixiy hodisalar va ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Muchal tizimi esa qadimgi turkiy xalqlarning vaqtni idrok etishidagi o'ziga xos model sifatida ajralib turadi. Ushbu tizim orqali vaqt siklik tarzda tasavvur qilingan bo'lib, har bir davr takrorlanib turuvchi jarayon sifatida qaralgan. Bu esa qadimgi turkiy tafakkurning tabiat bilan uyg'unlikda shakllanganligini ko'rsatadi. Muchal tizimi nafaqat kalendar tizimi, balki madaniy va ijtimoiy fenomen sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuningdek, sonlar va muchal tizimi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlanadi. Sonlar muchal tizimining asosini tashkil etgan bo'lsa, muchal tizimi esa sonlarning madaniy va semantik imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu holat til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yaqqol namoyon etadi. Qadimgi turkiy til tizimida sonlar faqat hisoblash vositasi emas, balki dunyoni anglashning muhim vositasi sifatida xizmat qilgan.

Bugungi kunda ham muchal tizimining ayrim elementlari turkiy xalqlar madaniyatida saqlanib qolgan bo'lib, bu qadimgi an'analarning davomiyligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, son kategoriyasining asosiy birliklari zamonaviy turkiy tillarda faol qo'llanilmoqda. Bu esa til tizimining tarixiy barqarorligini va uning rivojlanishidagi uzviylikni tasdiqlaydi.

Umuman olganda, qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda sonlar va muchal tizimining ifodalanishi turkiy tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar kelgusida yanada chuqurlashtirilishi lozim. Ayniqsa, lingvokulturologik yondashuv asosida olib boriladigan izlanishlar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati asoslari. – Toshkent, 2006. 35 b.
2. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi nazariyasi. – Toshkent, 2012. 97 b.
3. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent, 2010. 56 b.
4. Klyashtorny S.G., Sultanov T.I. Казахстан: летопись трех тысячелетий. – Алматы, 1992. 173 с.
5. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург, 1893. 122 с.
6. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. 209 p
7. Erdal M. A Grammar of Old Turkic. – Leiden: Brill, 2004. 78 p